



Abdumalikova Muslima

O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi talabasi

Telefon raqami: 97 771 39 82

Ilmiy rahbar: **M.M.Agzamova**

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD,
O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi dotsent v.b.

ZAMONAVIY TAFSIR VA TARJIMALARNING KЛАSSIFIKATSIYASI

Annotatsiya: Maqlada Qur'oni karim tafsirining dolzarblii, uning uslublari, Qur'oni karimga taalluqli ilmlar va tafsir ilmining bugungi kundagi ahamiyati to'g'risida gap boradi. Maqlada turli sohalarga doir tafsirlarni qiyosiy o'rganish haqida ham ma'lumotlar berib o'tilgan.

Kalit so'z: Tafsir, oqimlar, uslub, yondashuv, feminizim, zamonaviy, istishroqiy, bayoniy tafsir, ilmiy tafsirlar, ijtimoiy-siyosiy, matnshunoslik, mufassir.

Bugungi kunda din niqobi ostida faoliyat yurituvchi turli oqimlar va firqalar diniy manbalarini asl ma'nosidan burib, o'zlarining g'oya va maqsadlariiga mos tarzda talqin etmoqdalar. Xususan, Qur'oni karim oyatlarini tafsir qilishda, ahli sunna ulamolariga xilof ravishda, tafsir ilmi qoidalarni buzmoqdalar. Ya'ni tafsir ilmida ruxsat etilgan va ruxsat etilmagan sharhlash yo'llari bo'lib, botil toifalar aynan tafsir ilmida ruxsat etilmagan sharhlash yo'liga ko'ra Qur'on oyatlarini talqin etmoqdalar. Bu esa islam manbalarini noto'g'ri tushunishlikka, noto'g'ri tushunish natijasida esa, islamni yovuzlikka asoslangan din degan xulosaga olib kelib, islamofobiyan kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Turli jamiyatlarda, turli mamlakatlarda musulmonlar o'rtasida ham nifoq tarqalishiga, bo'linishlik, ixtiloflar kelib chiqishigan olib kelmoqda. Tafsir ilmida o'ziga xos qonun-qoidalari, uslub va usullar joriy qilingan bo'lib, bular Qur'on ma'nolari asl ma'nosidan boshqa ma'noga chiqib ketishligini, islam manbalarini xato talqinini oldini olishlik uchun. Zamonaviy tafsirlarni, ularning klassifikatsiyasini o'rganishlik shu jihatdan dolzarb bo'lib kelmoqda.

Ilk vahiy davridan to bugungacha Qur'oni karimga yozilgan tafsirlar tahlil qilinsa, ularning zamon o'tishi bilan zamonaviy jamiyatning o'zgaruvchan ijtimoiy, madaniy va siyosiy sharoitlariga moslashish uchun rivojlanib borganini kuzatishimiz mumkin. Avvalo, zamonaviy tafsir tushunchasiga oydinlik kiritish lozim.

Zamonaviy tafsirlar haqida gapirganda, ularning XX-XXI asrlarga taalluqli ekanini ta'kidlash kerak. Zamonaviy tafsir deganda tafsir muallifining vafotiga yuz yil bo'limgani nazarda tutiladi. Ushbu fikri doktor Ahmad Shukriy aytadi. Uning fikriga qaraganda, to'liq yoki to'liqqa yaqin bo'lgan zamonaviy tafsirlarning adadi 170 ga borib yetadi. Ushbu tafsirlar orasida oldingilarga taqlid asosida yoki yangicha uslubda yozilganlari, taraqqiyatparvarlari va yopiqlari, ayollar tomonidan yozilganlari va yangilikka chaqiruvchilari mavjud. Ahmad Shukriyning fikricha, ushbu davrda tafsirlarning ko'pligi Qur'on ma'nolarini ochishdagi uyg'oqlik, tafakkurning rivojlanishi, ilmiy yutuqlar va kashfiyotlarning ko'payishi bilan bog'liq. [1:133]

Ushbu ta'rif bir yondashuvni ifodalaydi. Boshqa bir yondashuvga ko'ra esa tafsir zamonaviy deb hisoblanishi uchun unda biz yashayotgan dunyoning hozirgi voqeliklarini hisobga olgan holda zamonaviy muammolar va ularga yechimni aks ettirishi zarur degan shart qo'yiladi.[3:42] Qur'onning zamonaviy tafsirida ilm-fan bilan bog'liq bir qancha yo'naliishlar mavjud. Ushbu tendentsiyalarning ba'zilari matnning o'ziga qarash ya'ni matnshunoslik yoki lug'aviy, lingvistik jihatdan yondashish (tekstualistik yondashuv), tarixiy va madaniy kontekst (vaziyat, muhit)ni hisobga olish (kontekstualistik yondashuv), zamonaviy g'oyalar va qadriyatlarni qamrab olish (modernistik yondashuv), ijtimoiy va siyosiy jihatlarni o'rganish (ijtimoiy-siyosiy yondashuv), ilmiy foydalanish, bilim orttirish (ilmiy yondashuv), muayyan mavzularga e'tibor qaratish (tematik yondashuv) va feministik nuqtai nazarlarga urg'u berish (feministik yondashuv) kabilardir. Ta'kidlash joizki, bu yondashuvlar zamonaviy islam



tafakkurini qayta shakllantirmoqda va bugungi dunyoda odamlarning Qur'oni qay tarzda tushunishlariga ta'sir ko'rsatmoqda. Bir so'z bilan aytganda, Qur'on tafsirlarining talqini asrlar mobaynida asosan vaqt o'tishi bilan biz yashayotgan dunyoni aks ettirish uchun o'zgargan. Har bir zamon o'zining muammolari va dolzarb masalalari bilan kelgan. Mufassirlar esa ularga yechimni tafsirlarida bayon qilishga uringanlar. Bugun Qur'oni zamonaviy manzarada, yoxud, voqelikda tushunishda turli xil ijtimoiy, madaniy va siyosiy omillarni hisobga olgan holda xilma-xil yondashuvlar qo'llanilmoqda.

Shulardan biri matnshunoslik tafsiridir. U Qur'on talqinining bir turi bo'lib, Qur'on matnining o'zini tahlil qilish va tushuntirishga qaratilgan. Bu yondashuv Qur'onda qo'llanilgan so'z va tilga diqqat bilan qarashga, shuningdek, matnning an'anaviy talqinlarini hisobga olishga tayanadi. Asosan, matnshunoslik tafsiri(boshqa bir nomi-lug'aviy tafsir) Qur'onning ma'nosi va ta'limotlarini tushunish uchun uni til nuqtai nazaridan o'rganishni o'z ichiga oladi. Masalan, Qur'ondag'i ma'lum bir oyat yuzasidan matnshunoslik yo'nalihsida tafsir qilinayotgan bo'lsa, asosiy e'tibor o'sha oyatda qo'llanilgan so'zlar, ularning ma'nolari va matnning boshqa qismlari bilan qanday bog'langanligini tushunishga qaratiladi. Bu yondashuv matn tili va tuzilishini tahlil qilish orqali Qur'on ichidagi chuqr ma'no va xabarlarni ochishga yordam beradi. Matnshunoslik tafsiri muallif nima demoqchi ekanligini tushunish uchun kitobni diqqat bilan o'qishga o'xshaydi, ammo bu holatda u Qur'oni til nuqtai nazaridan, arab tiliga xoslangan holda balog'at, fasohat, nahv jihatdan ko'zda utilgan xabarni tushunish uchun o'rganishdir. Bu tafsir yo'nalihi lug'aviy izohlardan ko'proq adabiy uslubiy tushunchaga aylangan. Zamaxshariy va Amin Xuliy kabi ba'zi olimlar o'zlarining tafsir ishlarida lingvistik nuqtai nazarni birinchi o'ringa qo'yib, tarixiy ijtimoiy-madaniy ma'nolarga urg'u bergenlar.[3:43]

Ikkinci zamonaviy yondashuv Qur'oni talqin qilishda kontekstualistik tafsir deb ataladi. Bu usul Qur'oni arab xalqlari u nozil bo'lgan paytda qanday tushunishgan bo'lsa, xuddi shunday tushunishga qaratilgan. Kontekstualistiklar vahiy holatlari haqidagi an'anaviy naqliy xabarlarga tayanish o'rniga, Qur'oni tarixiy va madaniy kontekstda individual tushunish kerak, deb hisoblashadi.

Muhammad Arkun, Nasr Hamid Abu Zayd va Xolid Abufadl kabi olimlar Qur'onning oldingi talqinlariga ko'r-ko'rona ergashish g'oyasini rad etuvchi kontekstualistiklarga misoldir. Ular Qur'on xabarini zamonaviy masalalar va voqeliklardan kelib chiqib talqin qilish kerak, deb hisoblaydilar. Kontekstual tafsir Qur'onga faqat an'anaviy talqinlarga tayanishdan ko'ra, u nozil bo'lgan tarixiy va madaniy sharoitni ham hisobga olgan holda unga yangicha qarashni anglatadi. Bu yondashuv bugungi dunyoda Qur'oni chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Uchinchi yondashuv modernistik tafsir (islohotchilik ruhida yozilgan tafsirlar) bo'lib, Qur'oni zamonaviylik, ayniqsa, G'arb tafakkur tarzi keltirib chiqaradigan muammolarga javob beradigan tarzda talqin qilish va tushuntirishni anglatadi. Bu yondashuv Qur'oni tushunishda zamonaviy g'oyalarni qo'llash uchun ilk olimlarning ta'limotlariga (taqlid) ko'r-ko'rona ergashish o'rniga mustaqil hukm (ijtihad) qo'llashga ishonadigan ba'zi musulmon olimlari tomonidan qabul qilinadi.

Masalan, Shoh Valiyulloh va Sayid Ahmadxon bu yondashuvga ishongan taraqqiyarvar musulmon olimlari edi. Ular g'arb va islomiy fikrlash tarzi o'rtasida katta farq bor va G'arbda ta'lim olgan yoki G'arb ta'limi ta'sirida bo'lgan musulmonlar Qur'on tafsirini zamonaviy g'oyalarga moslashtirishi kerak deb o'ylashgan.[3:43] O'ta yengillik tarafдорлари bo'lgan, modernistlardan farqli ravishda, ijobiy jihatdan vatanimiz jadidlarining ilmiy-ma'rifiy sohada amalga oshirgan ishlari qatorida diniy sohadagi islohotlari mazmuni, Qur'on tafsir va tarjimalariga ahamiyat qaratishlari bu yondashuvga o'xshab ketadi. Jadidlarning islomni to'g'ri talqin qilish, mutaassiblik va bid'atlar ta'siridan tozalab, xalqni taraqqiyotga, zamon bilan hamnafas bo'lishga, ilm olishga undab kelishlari ortida aynan ularni qoloqlikdan, mutaassiblikdan avvalgidek kuchli, har tomonlama rivojlangan jamiyat, qudratli davlat darajasiga qaytarish kabi ezgu maqsad yotgan.

Shunday qilib, modernistik tafsir Qur'onga yangi nuqtai nazardan qarash, zamonaviy muammolar va istiqbollarni ko'rib chiqish va uning ta'limotlarini bugungi kunga mos keladigan tarzda talqin qilish uchun mustaqil mulohaza yuritish, desak to'g'ri bo'ladi.



Yaqin o'tmishda ba'zi olimlar islom ta'limotlarini tushunishda qiynalganlar. Bu ko'plab musulmonlarning o'z dinlariga bo'lgan bog'liqliklariga salbiy ta'sir qildi. Gender tengligi, boshqa din vakillariga munosabat, tolerantlikdagi yetishmovchiliklar, zamonaviy falsafa va ilm-fandagi muammolar ham musulmonlar uchun islomning an'anaviy talqinlari bilan bog'lanishni qiyinlashtirdi. Bu bo'shliqni bartaraf etish uchun zamonaviy olimlar diniy matnlarni talqin qilishda ularning grammatikasi va qoidalariga qarashdan tashqariga chiqishlari va bugungi dunyoda islom dini qanchalik dolzarb bo'lishi mumkinligini hisobga olishlari kerak edi. Muhammad Abduh qalamiga mansub, keyinchalik shogirdi Muhammad Rashid Rido tomonidan nashr etilgan "Tafsir ul-manor" kitobi yuqorida ta'riflangan tafsirga misoldir. Bu kitob XXI asrdagi musulmonlarga ko'proq mos keladigan islom ta'limotlarini talqin qilishning yangi usulini o'zida aks ettiradi. Islohotchilik harakatining yirik vakillaridan biri Muhammad Rashid Rizo bu kitobda tarixiy, ma'naviy va siyosiy qarashlarini ham bayon etgan. U ilmning ma'lum bir sohasidagi tafsirlarning ko'payishini Qur'onidan ko'zlangan asl maqsad va undagi ilohiy hidoyatdan uzoqlashish, deya ta'riflagan. Uning g'oyasiga ko'ra, Qur'on inson ma'naviyati va siyosatga xizmat qilishi kerak bo'lgan.

To'rtinchisi, Qur'oni ijtimoiy-siyosiy maqsadda, ma'lum doirani qamrab olish uchun, unga ta'sir o'tkazish uchun yozilgan tafsirlar. Ularning aksariyat qismiga islomda adashgan oqimlar tomonidan qilingan tafsirlar kiradi. Bunday tafsirlarda zamonaviy dunyoda jamiyat, iqtisod va siyosat haqidagi ta'limotlariga e'tibor qaratiladi. Talqinning bu turi Qur'ondag'i xabarlarni ijtimoiy masalalar, iqtisodiy tizimlar va siyosiy tuzilmalarga qanday qo'llash mumkinligini haqida.

Ijtimoiy-siyosiy yondashuvga zamonaviy terroristik oqimlarning g'oyaviy rahnamosi "Musulmon birodarlar"ning "otasi" Sayyid Qutb yozgan "Fi zilalil Qur'on" ("Qur'on soyasida") nomli kitob misol bo'la oladi. Bu kitob betoqatlik ruhida yozilgan bo'lib, ijtimoiy, siyosiy va diniy to'ntarishlarni amalga oshirishga qaratilgan edi. Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy-siyosiy tafsir Qur'oni talqin qilish usullaridan biri bo'lib, uning ta'limotini zamonaviy dunyoda ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jihatdan qanday qo'llash(adashgan oqimlar uchun: moslashtirib, yoxud maqsadli buzib talqin qilish)ni ko'rib chiqadi. Bu turdag'i kitoblarga ko'p tillarga o'girilgan, maorif niqobi ostida kirib borib, katta masshtabni qamrab olgan "Nurchilik" harakatining asosiy g'oyalari jamlangan kitob-Said Nursiyning "Risolai-Nur"ini, Ashurali o'g'li Abduvali(Mirzaev)ning 2005-yilda Madinai munavvarada chop etilgan «Tafsir al-Furqon – Qur'oni karim ma'nolarining o'zbekcha tarjima va tafsiri»ni ham qo'shish mumkin. Ushbu kitob o'ta mutaassibona shaklda yozilgan bo'lib, unda aqidaviy, fiqhiy, siyosiy xatolar ko'p uchraydi. Shuning uchun bu kitob o'quvchisini aqida va g'oyasini chalkashtirish hamda adashtirishga olib boradi.

Beshinchi yondashuv-ilmiy tafsirlar. Zamonaviy tafsir atamasi bilan yonma-yon yuradigan bu so'z Qur'oni karim oyatlarining tarkibiy tuzilishidagi ilmiy tushunchalarni aniqlashni bildiradi. Ana shu ilm bilangina oyatlar ma'nolaridan ijтиҳодиъ va falsafiy fikrlar, xulosalar chiqarish mumkin. Ilmiy tafsir ulamolarining fikrlariga qaraganda, Qur'oni karim diniy-e'tiqodiy va diniy-ilmiy ilmlardan tashqari dunyo ilmlarining barcha turlarini ham o'zida mujassam qilgan. G'arb jamiyatlarida ilm-fan juda muhim ekanligi ma'lum. Odamlar islomda muqaddas kitob bo'lgan Qur'onga endi ilmiy nuqtai nazardan qaray boshladilar.

Ilmiy tafsirlar-Qur'ondag'i ilmiy faktlar haqidagi oyatlarni tushuntirish demakdir. Aslida, bu g'oya uzoq vaqtidan beri mayjud edi, lekin yaqinda u har qachongidan ko'proq mashhur bo'ldi. Bu haqda yozgan mashhur kishilardan biri Misrlik olim Shayx Tanaviy Javhariydir bo'lib, bu sohada juda muhim asar "al-Javohir fi tafsir al-Qur'on al-karim" nomli kitobni yozgan.

Qur'on tahlilining bu turi bugungi kunda, ayniqsa, G'arbda musulmonlar ta'siri tobora ortayotgani sababli ommalashib borayotgani ham eslatib o'tiladi. Bu kelajakda Qur'onning ilmiy jihatlarini o'rganish yanada kengayishini anglatadi.

Oltinchi yondashuv- Qur'oni tematik (mavzuiy) sharhlash deyiladi. Bu tur bir-necha jihatdan tafsir uslublarida sanab o'tilgan mavzuiy tafsirlarga o'xshasa-da, bu o'rinda u alohida zamonaviy tafsir klassifikatsiyasi, ya'ni yo'nalishi sifatida undan biroz farq qiladi. Qur'oni tahlil qilishda ushbu zamonaviy yondashuv Qur'onda muhim bo'lgan turli mavzularni o'rganishga qaratilgan.



Tematicik tafsir Qur'onning xabarini yaxshiroq tushunish uchun unga muayyan mavzular obyektivi orqali qarashni o'z ichiga oladi. Bu usul islomning dastlabki izdoshlari tomonidan qo'llanilgan bo'lsa-da, hozirgi zamonda u keng tarqaldi. Bu yondashuvni qo'llagan olimlar Qur'oni mavzuiy jihatdan o'rganish orqali uning ta'lilotlari va zamonaviy muammolarga aloqadorligi haqida chuqurroq tushunchaga ega bo'lish mumkinligini ta'kidlashadi. Bunday tafsir Qur'onga xilma-xil "ko'zoynaklar" bilan boqish kabi, unga turli burchakdan qarashga yordam beradi. Mavzuiy tafsirlar orqali uni muayyan mavzular bilan bog'liqligini ko'rish mumkin. U o'quvchilarga Qur'oni yanada tartib, diqqat bilan tushunishga yordam beradi va unda aytilgan asosiy xabarlar va saboqlarni tushunishni osonlashtiradi.

Yettinchi yondashuv-ayollar tomonidan yozilgan tafsirlar va Qur'on oyatlariga berilgan sharhlar bo'lib, ular o'z navbatida ikki xil qabul qilinadi. Biri, shunchaki kitobni ta'lif etuvchisi ayol bo'lganligi e'tiboridan. Bunday tafsirlarning an'anaviy tafsirlardan kam joyi yo'q, chunki u tafsirlarning sahihligini saqlash, Kalomni ulug'lash uchun tafsir qiluvchiga qo'yilgan shartlarga, qabul qilingan uslub va usullarga amal qilgan holatda sharhlangani uchun talabga javob beradi va aksariyat holatlarda manhaj asosida ilmga ega bo'lgan, tafsir qilishga haqli insonlar tomonidan yoziladi. Jumladan, Zaynab al-Gazzoliyning "Nazarot fi Kitabillah" kitobi 1995 yilda boshlanib, 2010 yilda 3 jidda to'liq yozib tugallandi. Ushbu kitob o'z yo'nalishida ayol kishi tomonidan yozilgan birinchi tafsir sanaladi. Shuningdek Masjidul Aqso masjidi imomi Ikrima Sabriyning turmush o'rtog'i Noila Hoshim Sabriy tomonidan yozilgan "al-Mubassar li nur al-Qur'on" tafsiri 20 yil ichida 11 jiddli bo'lib yozilgan. [1:134] Ikkinchisi esa, qo'llab-quvvatlanmaydigan feministik "tafsirlar". Aslida, ularga tafsir sifatida qaralmaydi, chunki ular tafsir deb atalishi uchun birorta belgi, xolis jihat mavjud emas. Bunday kitoblar XXI asrda G'arb mentaliteti ta'sirida vujudga kelgani bilan e'tibor tortmoqda. Ularga salbiy qaralishiga sabab ham Qur'oni istaganlaricha, hech bir qoidaga rioya qilmasdan sharhlaganliklari va feministik g'oyalarni ilgari surib, hatto Qur'onning ilohiy kitob ekanligini shubhaga olgan holda ma'lum g'oyani singdirish uchun yozganliklari va shunchaki erkak kishilar tomonidan yozilgani uchun asl, an'anaviy tafsirlarni olmasliklari, shuningdek, ulardagi qoidalarga ayni omil tufayli bo'ysunmasliklari, ko'plab hadislarni ayollarga qarshi deb inkor qilishlaridir. Buning isboti San-Fransisko universitetining ilohiyot va dinshunoslik kafedrasi dotsenti Aysha Hidayatullohning "Feminist edges of the Qur'an" kitobida yaqqol bilinadi. [4:295] Xuddi shu kabi Fotima Mernissi, Amina Vadud va Asmo Barlas kabi feministlar Qur'onning patriarxal talqiniga qarshi chiqishadi. Ular Qur'on oyatlari va Payg'ambar sunnatlarini tahlil qilish uchun an'anaviy tafsir tamoyillaridan foydalanmaydilar. Foydalanganlari ham e'tiroz bilan: Nazira Zayn al-Dinning 1928 yildagi asari tafsir an'analariga ayollik nuqtai nazarini qo'shib, o'zi mavjud deb sanagan gender ajratish va ayollarning pastligiga qarshi chiqqani, kitoblarida tanqidlarning ko'pligi bunga misoldir.

Endi Qur'oni zamonaviy tafsir qilish uslublari haqida to'xtalsak. Chunki zamonaviy tafsirlarning o'rganishda sharq islomshunoslari uslub jihatdan yondashadilar. Bunda an'anaviy tafsirlarda qo'llaniladigan mavzuiy, tahliliy, muqorin uslublariga qo'shimcha quyidagi uslublardan ham keng foydalaniladi:

Islohiy - bunda zamonaviy jamiyatdagi illatlar axloqiy, diniy va boshqa jihatlardan isloh qilinadi.
Mo'jizaviy raqamlı - al-Azhar Qur'onda shifrlangan raqamlar borligini inkor etadi. Buni al-Azharning Islom tadqiqotlari markazi 2007 yil 28 iyunda e'lon qilgan. Shifrlangan raqamlarda qandaydir matematik sirlar borligi, 19 raqami mukaddaslashtirilishi da'vo qilingan. Lekin aslida Qur'onda hech qanday sirlar yo'qligi ta'kidlangan.

Qiyosiy - bunda mufassirlar fikrlari va so'zları muqoyasa qilinadi. Masalan, "al-Kashshof" bilan "al-Bahr al-muhit" tafsirlarini qiyosiy o'rgangan Jazoirdagi Islom universiteti ustozи Ramazonnинг tadqiqotini aytish mumkin. Shuningdek, "Tafsir as-Saolibiy" va "Tafsir as-San'oniy"lar ma'lum darajada taqqoslangan yoki Muhammad ibn Zoyid al-Mutiriy tomonidan Abu Turob az-Zohiriyning "Shavohid al-Qur'on" va Oisha Abdurahmon bin ash-Shotiiyning "Kitob at-tafsir al-bayoniy" tafsirlari qiyoslangan tadqiqotlar ham misol qilinadi.

Istishroqiy - sharqshunoslik nuqtai nazaridan sharhlangan tafsirlar faqatgina o'rganish uslubi va tahlillari hamda siyosiy va madaniy jihatlarini tadqiq qilishi bilangina e'tiborni tortadi xolos. Ta'kidlash kerak-ki,



G'arbdagi sivilizasiyaviy, dini, siyosiy harakat natijasida vujudga kelgan. Ya'ni o'rta asrlarda islomdan ta'sirlangan. Shuningdek, sharqshunoslik masihiylikning sharq va islom olamidagi harakati natijasida paydo bo'ldi. Bundan tashqari mustamlakachilar sharqshunoslari oldiga o'z harakatlarini yanada kengaytirishga ko'maklashish vazifasini qo'ydilar va natijada ko'plab sharqshunoslari yuqori mansablarda ishladilar. Ushbu omillar mazkur tafsirlarning qanday uslubda yozilganligi bo'yicha mulohaza bildirishga sabab bo'ladi. Bunday tafsirlardan Ajentes Juladtas'herning "Mazohib at-tafsir alislamiy"ni aytish mumkin.

Bayoniy- Bint ash-Shotiy ushbu uslubni o'z ustozi Amin al- Havliya nisbat beradi. So'ngra uning o'zi ham ustozidan keyin ushbu yo'nalishda tadqiqot tayyorlashga harakat qildi. Jurjoniyning "Daloil al-e'juz fil ilm al-maoniy" ushbu yo'nalishdagi asos kitobdir. Mazkur yo'nalishdagi muhim tafsirlar quyidagilar: "at- Tabahhur fil ilm al-lug'a", "at-Tabahhur fil ilm al-tasrif", "at- Tabahhur fil ilm al-nahv", shuningdek qiroat, sababi nuzul, jumla siyoqiga nazar, terminlar bilan tafsirlarni aytish mumkin. [1:143]

Zamonaviy tafsir yo'nalishlari xilma-xil bo'lishiga qaramay, umuman, ma'lum mafkuralarning ta'sirini aks ettiradi. U tekstualistik, kontekstualistik, modernistik, feministik, ilmiy, ijtimoiy-siyosiy va tematik talqinlarning barchasida mavjud. Ushbu zamonaviy tafsir yo'nalishlarining asosiy mavzusi turli mafkura va falsafalarning aralashmasidir. Bugungi dunyoda odamlarning siyosiy, madaniy va texnologik muammolari, turli xil qiyinchiliklarini qanday hal qilinganiga nazar solsak, bunda muamolar Qur'oni o'rganish orqali musulmonlarning o'z burchlarini tushunishlariga yordam berish uchun muhim hissa qo'shganliklariga guvoh bo'lamiz. Bu esa musulmonlarga Qur'on ta'limotlari asosida qanday qilib to'g'ri yo'l tutishni bilishga yordam beradi.

Masalan, yangi texnologiya bilan bog'liq qiyin qarorga duch kelgan muslimonlar vaziyatni o'z e'tiqodlariga mos keladigan tarzda qanday hal qilish bo'yicha ularga rahbarlik qilish uchun Qur'on va olimlarning ta'limotlariga murojaat qilishlari mumkin.

Umuman olganda, zamonaviy dunyomizda duch keladigan murakkab muammolarni hal qilish uchun Qur'on bilimlari va yo'l-yo'riqlaridan foydalanish muhimdir.

Zamonaviy tafsirlar haqida so'z ketarkan, Qur'onning tarjimalari haqida ham to'xtalish lozim. "Tarjima" so'zi "bir tildan ikkinchi bir tilga o'girish" bilan bir qatorda "so'z ma'nosini ikkinchi tilda izohlab berish"ga nisbatan ham ishlatiladi. Ana shu ma'nolardan kelib chiqib, Qur'onshunoslikka oid manbalarda Qur'on tarjimasi ikki turga bo'lib o'rganiladi:

- harfiy (yoki lafziy), ya'ni so'zma-so'z tarjima. Unga ko'ra, Qur'oni karim bir tildan ikkinchi tilga, uslub va tartibini so'zlarning asosiy ma'nosini saqlagan holda o'girish tushuniladi. So'zma-so'z tarjima asl matndagi har bir so'zni ikkinchi tildagi muqobili bilan almashtirish demakdir.

- izohli (yoki ma'noviy) tarjima. Harfiy tarjimaning sirlari ham aksi bo'lib, nazm va uslubda asliyatga mos bo'lмаган tarjimadir. Unga ko'ra so'zlarning asl ma'nosini saqlab qolish e'tiborga olinmay, matndan ko'zlangan umumiyligi mazmunni ikkinchi tilda ifodalash tushuniladi. Bu tarjima turida ikki jihatga e'tibor beriladi: asl matnidagi iroda qilingan maqsadni anglash va uni tarjima qilinayotgan tilda ifodalab berish. Bunday tarjima asliyatga lug'aviy jihatdan muvofiq kelmasa-da, unda ma'no uyg'unligi ta'minlanadi.

Tarjimaning mazkur ikki turi farqini yaqqol ko'rsatib beradigan misol sifatida "Isro" surasining 29-oyatini ko'rsatish mumkin: "(Baxillik qilib) qo'lingizni bo'yningizga bog'lab ham olmang. (Isrofarchilik qilish bilan) uni butunlay yoyib ham yubormang!"

Ushbu oyatni "Qo'lingni bo'yningga bog'lab qo'yma va uni juda uzun qilib cho'zma" deb so'zma-so'z tarjima qilinsa, qo'lni bo'yinga bog'lab qo'yish va uni uzun zun cho'zib yuborishdan ta'qiq ma'nosini kelib chiqadi. Tarjima matnida "qo'lni bo'yinga bog'lab qo'yish"dan maqsad "ziqnalik" va "uzun cho'zib yuborish"dan murod "isrof" ma'nosini ekani aks etmay qoladi. E'tibor berilsa, mazkur tarjimada so'z ma'nosini ifodalash uchun qavslar ichida izohlardan foydalanilgan. [2:69]

"Izohli yoki ma'noviy tarjima" ma'lum shartlar asosida joiz deb qaraladi. "Qur'oni karim ma'nolarining tarjimasi" nomi ostida amalga oshirilayotgan tarjimalar ushbu tur doirasiga kiritilgani holda, bu ishning o'ta muhimligi ta'kidlanadi. Qur'onning arab tilida bo'lмаган tafsirlari ham shu turga o'xshab ketadi. Shuni ta'kidlash joizki, Qur'oni karimning hech qaysi tarjimasi asliyatning o'rnini bosa olmaydi.



Qur’oni karim mo‘jizakor kalom bo‘lgani uchun uni boshqa tilga mukammal tarjima qilishning imkoniy yo‘qligi barcha ulamolar tomonidan e’tirof etilgan. Shunday bo‘lsa-da, Qur’oni karim ma’nolarini tarjima qilish joiz deb topilgan. Bundan Qur’onni tushunish, uni o‘qish davomida tadabbur qilish, u orqali hidoyatlanish qasd qilinadi.

Xulosa. Qur’oni karim oyatlarini tafsir qilish ilk davrdan to bugungacha qanday e’tiborda bo‘lgan bo‘lsa, bundan keyin ham huddi shunday e’tiborda bo‘ladi. Nafaqat sharq, balki g‘arb olimlari tomonidan ham tafsiriga oid kitoblarning ta’lif etish boshlanganligi bunga yorqin misol. Chunki har bir kishi bir oyatni o‘qiganda yangi-yangi ma’nolarni kashf etishi e’tiboridan bu ilm qiyomatgacha o‘rganilaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. D.R.Maxsudov. Tafsir uslublari. darslik /D.Maxsudov, 2021. “Ozbekiston xalqaro islom akademiyasi” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2021.
2. M.M.Agzamova. Islomshunoslik. darslik / M.M.Agzamova Toshkent “Ozbekiston xalqaro islom akademiyasi” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2021. 176 b.
3. Ali, Amer. “A Brief Review of Classical and Modern Tafsir Trends and the Role of Modern Tafsir in Contemporary Islamic Thought.” Australian Journal of Islamic Studies 3, no. 2 (2018): 39-52.
4. Aboul-Ezz, Merna (2017). Book Review: Feminist Edges of the Qur’an. Journal of International Women’s Studies, 18(2), 293-295.